

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидилов Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибатуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni tahlil etishning tizimli yondashuv uslubiyotini takomillashtirish

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna

Совершенствование методологии системного подхода к анализу эффективности и качества услуг аутсорсинга

Эргашева Насиба Рахматуллаевна

Improving the methodology of a systematic approach to analyzing the effectiveness and quality of outsourcing services

Ergasheva Nasiba Rakhmatullaevna

Received: May 12, 2025 Revised: May 16, 2025 ■ Accepted: May 19, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya:** Ushbu maqolada autsorsing xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirishni tahlil etishning tizimli yondashuv uslubiyoti tahlili, shu jumladan autsorsing xizmatlarning maqsad va vazifalari, mijoz tomonidan autsorsing xizmatlar bozorini tanlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari muhim belgilari va xususiyatlarini aniqlash va ularni tasniflash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsing jarayonlar majmuyi sifatida taqdim etishga asoslanadi va ushbu xizmatdagi individual jarayonlarni va ularning muhim xususiyatlarini taqsimlash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.
- **Kalit so'zlar:** autsorsing, tizimli yondashuv, autsorser, maktabgacha ta'lim tashkiloti, xavf, samaradorlik, sifat, autsorsing xizmat, baholash, narx, autsorsing narxi
- **Аннотация:** В статье представлен системный подход к анализу эффективности и качества услуг аутсорсинга, включающий цели и задачи услуг аутсорсинга, выбор рынка услуг аутсорсинга заказчиком, выявление важных признаков и характеристик дошкольных образовательных организаций и их классификацию, представление аутсорсинга в дошкольных образовательных организациях как совокупности процессов, а также научно обоснованные предложения и рекомендации по классификации отдельных процессов в данной услуге и их важных признаков.
- **Ключевые слова:** аутсорсинг, системный подход, аутсорсер, дошкольная образовательная организация, риск, эффективность, качество, услуга аутсорсинга, оценка, цена, стоимость аутсорсинга
- **Abstract:** This article is based on the analysis of a systematic approach to the analysis of improving the efficiency and quality of outsourcing services, including the goals and objectives of outsourcing services, the choice of the

outsourcing services market by the client, the identification of important features and characteristics of preschool educational organizations and their classification, the presentation of outsourcing in preschool educational organizations as a set of processes, and scientifically based proposals and recommendations for the classification of individual processes in this service and their important features.

- **Keywords:** outsourcing, systematic approach, outsourcer, preschool educational organization, risk, efficiency, quality, outsourcing service, evaluation, price, outsourcing price

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsingni tashkil etishning zamonaviy shakllari, dunyo autsorsing xizmatlari bozori va uning geografiyasidagi asosiy tendensiyalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ahamiyati, tarkibi va o'ziga xos xususiyatlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ta'minlashning sifat jihatidan baholash mezonlari, autsorsing xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari, autsorsingni tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish kabilar bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari - mamlakatimizdagi uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'inidir. Bu maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 3-7 yoshli bolalarni qabul qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi beg'ubor, murg'ak qalbli yosh bolalarni sog'lom o'stirish, umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, yoshiga mos ravishda zamonaviy bilim va tarbiya berish hamda ma'naviy yuksaltirishdan iboratdir. Natijada yosh bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olish darajasi 2023 yilda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 74,4 foizga, jumladan, 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasi 92 foizga yetkaziladi. Bolalar bog'chalaridagi mutaxassis pedagoglar bolalarning qobiliyati imkoniyatlarini aniqlab qiziqishlarini o'rganib, ota-onalarga bolalar tarbiyasi bo'yicha zarur tavsiyalar berishi lozim. Shuning uchun ham ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan muntazam aloqada bo'lishlari kerak. O'zbekiston iqtisodiyotida autsorsing xizmatlari yaqin yillarda paydo bo'ldi. Bu autsorsing shartnomalarini faol ravishda tuzishni boshlagan mahalliy tashkilot va kompaniyalar uchun yangi xizmat ko'rsatish sohasi. Fikrimizcha, autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash mahalliy amaliyotda tarqalishini cheklovchi omillardan biri – ulardan foydalanishning ishlab chiqilgan to'g'ri mexanizmning yo'qligi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan biz ushbu sohani o'rganishni, tashkilot va kompaniyalar rahbarlarining xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymasliklari uchun autsorsing xizmatlaridan maktabgacha

ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholashning eng muhim nuqtalarini aniqlashni zarur deb hisoblaymiz. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ushbu xizmat turidan amalda foydalanish imkonini beruvchi mantiqiy o'ziga xos harakatlar tizimi sifatida ko'rib chiqishni taklif qilmoqchimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Autorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash muammosi va ularni amaliyotga joriy etishga bag'ishlangan ishlanmalar tahlili, shuningdek, autsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmi muammosini o'rganish xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni va ulardagi joylar sonining ko'payib, bolalarni qamrab olish darajasining oshishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021 yillarga maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori[1] muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu Qaror asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish Dasturi qabul qilinib, unga asosan davlat, davlat-sherikchilik, xususiy, oilaviy bilan ta'minlash belgilangan edi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash bo'yicha ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilinib kelmoqda. Ushbu olimlar Gilmiyarova M.R. [2], Fedorova YE.A., Yermolov A.V. [3], Korneychik M., Lyasuskaya N. [4], Vasilyev A.S., Mirgorodskaya T.V. [5], Yeskova L.F., Drozd A.M., Manevich A.V. [6], Pardayev M. Q. [7], Urazov B.K. [8] va boshqalar. Ushbu tadqiqot yo'nalishining o'ziga xos xususiyati shundaki, mavjud xorijiy va mahalliy ilmiy ishlarning aksariyati faqat autsorsing xizmatlari bozorining ayrim segmentlariga qaratilgan. Bu asosan autsorsingning ma'lum bir turidan foydalanish va u bilan bog'liq muammolarga tegishli tadqiqotlardir.

Autorsing sohasida olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar va O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari tomonidan to'plangan juda kam amaliy tajribaga qaramay, autsorsing xizmatlaridan sifatli foydalanish mexanizmi rivojlanish yo'lida bormoqda.

Ushbu masala bo'yicha ilmiy ishlarning juda kamligi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash faoliyatini ishlab chiqadigan chuqur va tizimli tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash tahlili qilish asosida outsorsing xizmatlaridan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llashning uslubiy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan masalalar, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, surovnomma va iqtisodiy tahlilash va tizimli tahlil bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash outsorsing loyihalaridan foydalanish mexanizmida risklarni boshqarishning eng muhim bosqichlaridan biridir. Iqtisodiy adabiyotlarda bu konsepsiyaning ko'plab ta'riflari mavjud. Biroq, umumiy holatda, xavf deganda xavf omillari va turlarini aniqlash va ularni miqdoriy baholashning tizimli jarayoni tushuniladi. Demak, xavflarni tahlil qilish metodologiyasi bir-birini to'ldiruvchi sifat va miqdoriy yondashuvlarni birlashtiradi. Shu bilan birga, xavfni sifatli tahlil qilishning asosiy vazifasi xavfning manbalari va sabablarini, uning paydo bo'lish bosqichlari va ishlarini aniqlashdir.

Xavf – bu ehtimollik toifasi, shuning uchun noaniqlikni baholash va uning darajasini miqdoriy aniqlash jarayonida ehtimollik hisob-kitoblari qo'llaniladi. Bunday baholash outsorsing loyihasidan foydalanish maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish uchun keyingi tahlil obyekti bo'ladigan yo'qotishlar nuqtayi nazaridan eng mumkin bo'lgan xatarlarni va yo'qotishlar bo'yicha muhimlarni aniqlash imkonini beradi. Ehtimollarni baholash, shuningdek, namunaviy tadqiqotlarning amaliy imkoniyatlarini aniqlashga va kelajakdagi harakatlarni bashorat qilishga yordam beradi. Bunday munosabatlarni o'rganish ular qat'iy, funksional bog'liq emasligi bilan murakkablashadi. Ushbu o'zgaruvchiga ta'sir qiluvchi barcha asosiy omillarni (masalan, foyda, xavf) aniqlash juda qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu o'zaro ta'sirlarning aksariyati tasodifiy, noaniq va statistik kuzatishlar soni bilan cheklangan. Bunday sharoitda matematik statistika (ya'ni ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish nazariyasi) iqtisodiy modellarni qurish va ularning

parametrlarini baholash, iqtisodiy ko'rsatkichlarning xususiyatlari va ularning o'zaro bog'liqlik shakllari to'g'risidagi farazlarni sinab ko'rish imkonini beradi, bu esa pirovard natijada xizmat qiladi. Iqtisodiy tahlil va prognozlash uchun asos bo'lib, asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, outsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfini sifatli baholashdan maqsad ham moliyaviy, xo'jalik va boshqaruv faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan xavflarning asosiy turlarini aniqlashdir. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, tahlilning dastlabki bosqichida maktabgacha ta'lim tashkilot rahbari xavflarning miqdoriy tarkibi bo'yicha xavf darajasini vizual ravishda baholashi mumkin va bu holatda u ma'lum bir qarorni amalga oshirishdan bosh tortishi mumkin.

Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatli xavfning sifatli tahlilining yakuniy natijalari, o'z navbatida, miqdoriy tahlil uchun dastlabki ma'lumot bo'lib xizmat qiladi, ya'ni faqat qaror qabul qilish algoritmining muayyan operatsiyasini amalga oshirish jarayonida mavjud bo'lgan xavflar baholanadi.

Miqdoriy xavfni tahlil qilish bosqichida uning raqamli qiymatlari hisoblanadi. Mumkin bo'lgan zarar ham aniqlanadi va uning namoyon bo'lishining xarajatlar smetasi beriladi. Nihoyat, miqdoriy baholashning yakuniy bosqichi xavfqa qarshi choralar tizimini ishlab chiqish va ularning xarajatlar ekvivalentini hisoblashdir. Miqdoriy xavfni tahlil qilishning eng keng tarqalgan usullari statistik, analitik, ekspert baholash usuli, analogiya usulidir.

Autsorsing xavfini miqdoriy baholashning roli, agar muqobil yechimlar to'plamidan eng katta foyda keltiradigan optimalni tanlash mumkin bo'lganda sezilarli darajada oshadi. Xavfni minimallashtirish maqsadlariga muvofiq eng kam xarajat va yo'qotish bilan eng yaxshi natijaga erishish ehtimoli. Bu yerda ko'rib chiqilayotgan outsorsing jarayonlarining elementlarini aniqlash, miqdoriy baholash, baholash va taqqoslash, iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimida ularning tavsifi bilan munosabatlarni, tendensiyalarni, qonuniyatlarni aniqlash kerak.

Sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilish ularni baholash tizimini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Mijozlarning qoniqish darajasini baholash usullari sohasidagi tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sifat parametrlarini aniqlash va baholash masalalariga ham qator ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan. Bu kabi tadqiqotlarda mijozlar ehtiyojini qondirish va ularning qoniqish konsepsiyasi xizmat sifati tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi.

Sifat parametrlarini baholashdagi muammolar va murakkabliklar baholash mezonlarini rasmiylashtirish, umumlashtirish va tahlil qilish, shuningdek, ularni o'lchash usullarini aniqlash kabilar bilan bog'liq hisoblanadi. Xizmatlar

sifatini baholashning mavjud usullarining asosiy kamchiliklari ko'pincha ishlab chiquvchilarning muammolarni hal qilishga yetarlicha e'tibor bermasligi va baholash tizimiga kiritilgan muhim parametrlarni tanlashning xizmatlar ko'lamiga bog'liqligi bilan izohlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmat ko'rsatish

standarti quyidagilarga nisbatan xizmat ko'rsatish tizimining mijozlar bilan o'zaro ta'siriga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan me'yoriy shaklda o'rnatilishi kerak. Ya'ni, xizmat standartini belgilashda quyidagi mezonlarga tayanish lozim bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmat ko'rsatish standartlarini belgilovchi mezonlar [1].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmat ko'rsatish vaqti deganda nafaqat xizmat foydalanish uchun sarflangan vaqt, balki mazkur xizmatdan foydalanish uchun belgilangan joyga yetib borish bilan bog'liq vaqtni ham inobatga olish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini amalga oshirishda bunga o'xshash ko'plab muammolar vujudga kelgan, xizmat narxi arzon, ammo u ko'rsatiladigan manzilga yetib borish ancha vaqt va xarajat talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'rsatiladigan outsorsing xizmatining joylashuvini ham hisobga olish lozim, ya'ni mijozlar guruhlar uchun transportdan foydalanish imkoniyatlari bir-biriga yaqin bo'lishi lozim, shuningdek, joylashuv nuqtayi nazaridan hudud va binolarga kirish imkoniyatlari hisobga olinishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmat haqidagi ma'lumotlar to'liq va ishonchli bo'lishi, ko'rsatilgan xizmatlarning berilgan axborotlarga mos tushishi talab qilinadi. Bunda xizmat ko'rsatish qoidalari, mijozlarning huquqlari, nomaqbul sifat va xizmatlar hajmi uchun da'vo arizasi berish tartibi va boshqalarning ishonchiligi ta'minlanishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmat narxi va undan foydalanish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ayrim toifalari uchun belgilangan imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi muhim

ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga outsorsinglar xizmatlarini ko'rsatish sifatini kompleks baholashning mazmunli tahlili quyidagi asosiy usullarni aniqlash imkonini beradi:

a) haqiqatda ko'rsatiladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari outsorsing sifatini mavjud standartlariga muvofiqligini monitoring qilish;

b) ko'rsatilayotgan xizmat sifatini aniqlash bo'yicha iste'molchilar fikrini o'rganish, sotsiologik tadqiqotlar;

v) ko'rsatilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari outsorsing xizmatlarining sifat standartlariga muvofiqligini tekshirish bo'yicha nazorat choralari ishlab chiqish va amalga oshirish. Amaldagi sifatni baholash usullarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, aksariyat holatlarda ko'rsatiladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlari sifatini baholash so'rovnomal monitoringi, sotsiologik so'rovlar qo'llaniladi, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatlarini ko'rsatish sifatini baholash uchun foydalaniladigan barcha parametrlar to'plami shartli ravishda ikkita asosiy guruhga bo'linadi:

a) avtomatik ravishda olinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar to'plamini aniqlash. Ushbu guruh uchun quyidagi parametrlarni ajratish mumkin: outsorsing xizmatni qabul qilish vaqti; rejalashtirilgan vaqti; xodimlarning xatti-harakatlari

ustidan shikoyat qilish imkoniyati; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlarini ko'rsatishda tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish normalariga rioya qilish va boshqalar;

b) ekspert baholash. Bunday holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari outsorsing xizmat ko'rsatish sifatini baholash uchun ishlatiladigan asosiy parametrlar to'plami: iste'molchi uchun xizmatdan foydalanish imkoniyati; xodimlar malakasi; xizmatdan qoniqish darajasi; xizmat ko'rsatish shartlari: qulaylik, xushmuomalalik va boshqalar; outsorsing xizmatlarini ko'rsatishdagi tartib-qoidalariga rioya qilinishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsingni amalga oshirish natijalarini baholashda ushbu parametrlar majmuasidan foydalanish outsorsing xizmatlari sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Yuqorida ta'kidlanganidek, outsorsing qo'shimcha raqobatdosh ustunliklarni ta'minlaydigan biznes jarayonlarini boshqarishning zamonaviy modelidir, shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun xususiy kompaniyalarning zaxiralaridan foydalanish ushbu afzalliklarning asosiy manbai hisoblanadi. Outsorsingga topshirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatini o'lchash tartibini quyidagi asosiy bosqichlar bilan tavsiflash mumkin: 1) baholash holatini aniqlash; 2) ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish; 3) xususiyatlarni o'lchash uchun shkalani shakllantirish; 4) taqqoslash asosini tanlash va asoslash; 5) yagona ko'rsatkichlarni yig'ish. Baholash holatini aniqlash bosqichida baholash subyektlarini belgilash talab qilinadi, shuningdek cheklovchi omillar aniqlanadi. Baholash holatiga nisbatan aniqlik ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin.

Birinchi yondashuv – maktabgacha ta'lim tashkilotlari muhim belgilari va xususiyatlarini aniqlash va ularni tasniflash. Ikkinchi yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing

jarayonlar majmuyi sifatida taqdim etishga asoslanadi va ushbu xizmatdagi individual jarayonlarni va ularning muhim xususiyatlarini taqsimlashni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmatining tanlangan xususiyatlarini o'lchash uchun shkalani shakllantirish bosqichi ko'rsatkichlarni belgilashni o'z ichiga oladi. Bular tashqi ajralib turadigan ko'rsatkichlari, masshtab turini aniqlash (nominal, tartibli, intervalli), o'lchov birliklari (bo'linmalar soni), shuningdek, birlamchi o'lchovning haqiqiyliigi, mustahkamligi va aniqligini tekshirish.

Asosiy bosqichlardan biri – bu taqqoslash bazasini tanlash, individual va o'rtacha hisob-kitoblarni bo'lishi mumkin. O'rtacha baholar me'yoriy, indeksli, istiqbolli, ideal, reagnostik yoki prognostik ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan va boshqalar sifatida tuzilishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing xizmati sifatini baholash shkalasi sifatida 0 dan 1 gacha yoki 0 dan 100 gacha bo'lgan oraliqda normallashtirilgan shkalalardan foydalanish, keyinchalik baholashning yakuniy natijalarini to'rt darajali intervalli koefitsiyentlari shkalaga qisqartirish tavsiya etiladi (2-jadval).

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, bir vaqtning o'zida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing sifatiga qo'yiladigan talablar, ularning normativ va haqiqiy qiymati, sifat talablaridan chetga chiqish ko'rsatkichlari taqqoslanadi. Outsorsingga topshirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing ko'rsatish sifatining yakuniy bahosini olish uchun normallashtirish mexanizmlari, ustuvor baholash tartib-qoidalarini, yagona ko'rsatkichlarni yig'ish va ulardan foydalangan holda barcha mezonlar uchun baholash qiymatlarini umumlashtirish kerak, bu ma'lumotlarni umumlashtirish va integral ko'rsatkichlarni hisoblash imkonini beradi.

2-jadval

Autsorsing bilan shug'ullanuvchi korxonaga topshirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatini baholashning taxminiy shkalasi [2]

BAHO	INTERVAL (UMUMIY MASSHTABDAGI ULUSHI, FOIZ)	SIFAT
Baho 1	0-50	Autsorsing sifati maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat standartiga minimal darajada mos keladi
Baho 2	50-80	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing sifat standarti ma'lum darajada buzilgan holda taqdim etiladi. Buni osongina tuzatish mumkin.
Baho 3	81-90	Autsorsing sifati umumiy hisobda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sifat standartiga mos keladi.
Baho 4	91-100	Autsorsing sifati maktabgacha ta'lim tashkilotlarining to'liq sifat standartlariga to'liq mos keladi

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing sifatini o'lchash va baholashning mavjud usullarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular asosan xizmatlar ko'rsatish tizimlari va muddatining tashqi bahosini olishga (ya'ni iste'molchi nuqtayi nazaridan baholash) qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari outsorsingga topshiriladigan xizmatlarining sifatini o'lchash uchun mutaxassislar rahbarlik qilishi kerak bo'lgan yagona baholash va chora-tadbirlar tizimini joriy etish kerak. Faqat bu holatda xizmatlar sifati ko'rsatkichlari haqida gapirish mumkin bo'ladi. Shu sababli olingan natijalarga asoslangan holda qaysi xizmatlarning outsorsingga o'tkazilishi kerakligini asoslash lozim.

Shu bilan birga, ushbu ro'yxatga kiritilgan barcha xizmatlar osongina o'lchanadigan, standartlashtirilgan bo'lishi kerak, xizmatlarning turli sinflari va holatlariga mos kelishi va ularni baholash jarayonida muhim ishni talab qilmasligi kerak. Faqat bu holatda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sifat halqasini olish mumkin. Biroq bu holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan bog'liq barcha jarayonlarga, shu jumladan, xizmatlar sifati siklida ishlaydigan uchta asosiy jarayonga (marketing, dizayn va xizmatlar ko'rsatish) operatsion talablarni belgilash uchun sifat tizimining metodologiyasini yaratish talab qilinadi.

Autsorsing xizmatlarining samaradorligi, kelajakda e'tiborga olinishi kerak, ya'ni shartnomani bajarish va yakunlashdan keyin buyurtmachi kompaniyadagi vaziyat qanchalik yaxshilandi. Biroq muzokaralar jarayoni bosqichida outsorsing xizmatlarining samaradorligini mijoz-kompaniyaning potensial yoki haqiqiy xarajatlari va outsorsing narxi nuqtayi nazaridan baholash tavsiya etiladi.

Autsorsing xizmatlari bozori amaliyotida keltirilgan usullardan, bizning fikrimizcha, quyidagi:

- daromadning oddiy (hisob-kitob) normasi usuli;
- loyihaning ichki rentabelligini baholash usuli;
- loyihaning sof joriy qiymatini baholash usullaridan foydalanish eng maqbuldir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Autsorsing xizmatlaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanish xavfi, samaradorligi va sifatini baholash quyidagi natijalarga erishish maqsad qilinadi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini mos vazifalariga yo'naltirishga erishish uchun sharoit yaratish;
- barcha darajadagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ma'muriy-iqtisodiy jihatdan ta'minoti sifatini oshirish;
- outsorsing shartnomasida so'ralayotgan natijalar sifatini va yetkazib beruvchining javobgarligini batafsil ko'rsatish imkoniyati (xizmatning shaffofligini oshirish);
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tegishli

faoliyat sohasidagi eng raqobatbardosh va samarali faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlarni jalb qilish;

- kam xarajat evaziga innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash;
- atrof-muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatini oshirish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kommunal xizmatlarni yetkazib beruvchini o'zgartirishni soddalashtirish;
- barcha resurslaridan foydalanish samaradorligi va ularni kamaytirish imkoniyatlarini oshirish.

Bularning barchasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadi bo'lgan xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna-Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, (PhD) / Эргашева Насиба Рахматуллаевна - доцент Каршинского государственного технического университета, (PhD) / Ergasheva Nasiba Rakhmatullaevna - Associate Professor of Karshi State Technical University, (PhD)

► nasibaergasheva1988@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-6479-6709>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda —2017-2021 yillarga maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Qarori
- [2]. Гилмиярова М.Р. Проблемы и перспективы развития бухгалтерского аутсорсинга // Вестник ВГУ. Серия: Экономика и управление, 2017. - № 2. - С. 76-80.
- [3]. Федорова Е.А., Ермолов А.Б. Анализ современных тенденций в аутсорсинге бухгалтерского учета // Финансовая аналитика: проблемы и решения. - 2016. - № 27 - С. 4-14.
- [4]. Корнейчик М., Лягуская Н. Развитие бухгалтерского аутсорсинга в Республике Беларусь [Электронный ресурс]. - Режим доступа: xtd://codxus.at.ua/publ/2016_03_31_Iviv/seksiiia_sesitiion_8_2016_03_31/razvitiia_bukxhaaiterskoao_autsorsinaa_v_respublike_belarus/122-1-0-1848. - Дата доступа: 02.05.2018.
- [5]. Васильев А.С., Миргородская Т.Б. Проблемы и перспективы аутсорсинга бухгалтерского учета в России // Международный научно-исследовательский журнал, 2015. - Выпуск № 1. Част 2. - С. 19-21.

- [6]. Ескова Л.Ф., Дрозд А.М., Маневич А.Б. Аутсорсинг в Республике Беларусь [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://эииб.бсу.бй/битстреам/123456789/89793/1/дрозд_маневич_сборник11Жом1.пдф. - Дата доступа: 12.03.2017.
- [7]. Пардаев М.Қ. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари.-Т.: «Иқтисод-молия». 2008. – 260 б.
- [8]. Урозов Б.К. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарида бухгалтерия ҳисоби ва аудитнинг долзарб масалалари. – Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2011. – 260 б.
- [9]. Ergasheva N. Outsourcing xizmatlarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. // “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. – Samarqand, 2023 – № 1. – B. 91-95. (08.00.00; №20).
- [10]. Ergasheva N. Autosorsing xizmatlari bozorini baholash. // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 3/2 – 2023, № 21. – B. 191-193. (OAK 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari; Milliy nashrlar №21)
- [11]. Ergasheva N. Analysis of risk, effectiveness and quality assessment of using outsourcing services in preschool educational organizations. // Journal of Management Value & Ethics. [https://www.jmveindia.com/journal/Oct-dec.2023.Vol.13№04.-P.47-53.\(08.00.00;№6\).](https://www.jmveindia.com/journal/Oct-dec.2023.Vol.13№04.-P.47-53.(08.00.00;№6).)
- [12]. Ergasheva N. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autosorsing xizmatlarini iqtisodiy baholashning “X2S” mexanizmini shakllantirish yo'nalishlari. // “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. – Samarqand, 2023. – № 4. – B. 91-95. (08.00.00; №20).